

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TA'LIM -TARBIYA
BERISHDA EKOLOGIK ERTAKLARDAN FOYDALANISH.

Omonova Risolat Pardayevna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarga ekologik bilimlar berish va ularda tabiatga mehr uyg'otishda ertaklardan foydalanish jarayonlarini tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы организации и совершенствования процессов использования сказок для передачи экологических знаний детям, обучающимся в дошкольных образовательных организациях, и для привития им любви к природе.

Annotation: The article discusses the issues of organizing and improving the processes of using fairy tales to provide children with environmental knowledge and instill in them a love for nature in preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: ekologik tarbiya, ekologik ertaklar, maktabgacha ta'lim, tabiatni asrash, ekologik ong

Ключевые слова: экологическое образование, экологические сказки, дошкольное образование, охрана природы, экологическая осведомленность.

Keywords: environmental education, environmental fairy tales, preschool education, nature conservation, environmental awareness.

Boshlang'ich ekologik ta'lim va tarbiyani amalga oshirishda maktabgacha yoshdagi bolalar saviyasiga mos va xos ish shakllari, vositalari va metodlarini tanlab olish muhim shartdir. MTTda boshlang'ich ekologik tarbiyaning eng samarali yo'llaridan biri ertaklar asosida ularga ekologik bilim va tushunchalarni berib borishdir. Maktabgacha yosh davrida bolalar atrof-muhitni emotsional qabul qiladi.

Shu sababli ekologik bilimlarni quruq tushuncha emas, balki obrazli, qiziqarli shaklda berish zarur. Ekologik ertaklar ana shunday samarali vositalardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ertaklar orqali tabiatga mehr uyg'otish – bu ertak qahramonlari (hayvonlar, o'simliklar) bilan tanishish, ularning hayotini tushunish, tabiatdagi muammolarni (quruqlik, suv, o'rmonlar) hal qilishda bolalarni jalb qilish, ularda tabiatni sevish va muhofaza qilish hissini uyg'otish, jonli burchaklar tashkil etish orqali ularni parvarish qilishni o'rgatish hamda turli mashg'ulotlar, o'yinlar o'tkazishni o'z ichiga oladi. Ertaklar orqali tabiatga mehr uyg'otish bolalarda tabiatga hurmat, uni asrash hissini shakllantirib, ekologik madaniyatni rivojlantirishning muhim vositasidir. Ko'pchilik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik ertaklarni tizimli ravishda qo'llash bolalarda ekologik ongini mustahkamlash va tabiatni asrashga intilishni rag'batlantiradi.

Ekologik ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular bolalarning axloqiy, estetik va ekologik ongini bir vaqtda shakllantiradi. Ertak tinglash jarayonida bola yaxshilik va yomonlikni farqlashni, tabiatga zarar yetkazish oqibatlarini tushunishni o'rganadi. Shu bilan birga, bolalarda kuzatuvchanlik, tasavvur va nutq faolligi rivojlanadi. Tarbiyachi va ota-onalar ekologik ertaklardan foydalanishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi, ertak mazmunini hayotiy misollar bilan boyitishi lozim. Ertakdan so'ng suhbat, savol-javob, rasm chizish yoki rolli o'yinlar tashkil etish bolalarda olingan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Ertaklarda tabiatga zarar yetkazishning salbiy oqibatlari va uni asrashning ijobiy jihatlari obrazli tarzda yoritiladi, bu esa bolalarning ongiga chuqur singadi.

Ekologik ertaklar orqali bolalar:

- Tabiat hodisalarini sodda va obrazli tarzda anglaydi;
- O'simlik va hayvonlarga nisbatan mehr-shafqat tuyg'ularini rivojlantiradi;
- Tabiatni asrash zarurligini hissiy jihatdan qabul qiladi;
- Ekologik madaniyatning dastlabki ko'nikmalarini egallaydi.

Ekologik ertaklarda:

- Daraxt, qush, hayvonlar jonlantirilgan obrazlar sifatida tasvirlanadi;

- Yaxshilik va yomonlik qarama-qarshi qo'yilib, tabiatni asrash ijobiy baholanadi;
- Bolalarda empatiya va mas'uliyat hissi kuchayadi.

Ekologik ertaklar bolalar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lgan obrazlar orqali ekologik g'oyalarni yetkazadi. Bunda: tabiat jonlantiriladi; Yaxshilik va yomonlik qarama-qarshi qo'yiladi; Ijobiy xulq-atvor targ'ib qilinadi. Masalan, daraxtning kesilishi, suvning ifloslanishi yoki hayvonlarga zarar yetkazish kabi holatlar ertak syujeti orqali salbiy hodisa sifatida ko'rsatiladi. Bu esa bolalarda ekologik muammolarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi. Misol uchun "Mehribon daraxt", "Suv tomchisining sayohati", "Qushcha va bolakay" kabi ertaklar bolalarni tabiat bilan do'stona munosabatga chorlaydi.

Ekologik ertaklar asosida tarbiyaviy ishlar quyidagi shakllarda olib borilishi mumkin:

Ertak aytib berish va suhbat — ertak mazmuni asosida savol-javoblar;

Rol o'ynash — bolalar ertak qahramonlarini ijro etadi;

Rasm chizish va applikatsiya — tabiat manzaralarini tasvirlash;

Amaliy faoliyat — gul ekish, barg yig'ish, qushlarga don berish;

Multimedia vositalari — animatsion ekologik ertaklar.

Ertaklarni aytib berish jarayonida ularni ifodali va maromiga yetkazib aytish juda muhim hisoblanadi. Chunki ertak qanchalik ifodali va diqqatni tortadigan bo'lsa bolalarning uni eslab qolishi va tushunishi oson bo'ladi. Tarbiyachi yoki ota-onalar farzandlariga ertaklarni aytib berayotganda ularning yosh xususiyatlari va individuallik jihatlarini ham hisobga olishi lozim. Shu tariqa ertak so'ngida ham bolalar bilan savol-javoblar o'tkazilib, ulardan fikrlari so'raladi. Bu ham so'zlangan ertakni yanada to'liqroq anglashi uchun zarur shart hisoblanadi.

Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar jamoasi bilan ertaklarni sahnalashtirish orqali ham ertaklarni yanada to'laroq anglashiga erishishimiz mumkin. Tarbiyachi tomonidan ertak avval bolalarga aytib beriladi. Keyin esa ertak qahramonlari rollari bolalarga taqsimlanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalar diqqatini jalb qilish va ular faolligini oshirishdan iboratdir. Bolalar rollarni ijro etish

jarayonida ertaklarni yanada anglab yetadilar va shu orqali ularda tabiatga mehr uygʻonadi.

Ertaklar asosida rasm chizish va applikatsiyalar tayyorlash ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Bolalarga atrof-muhit, undagi maʼlum bir hodisalar, oʻsimliklar, hayvonlar, gullar umuman tabiatning bir boʻlagi boʻlgan har qanday obyektlar rasmini chizish topshirigʻi beriladi. Bu orqali bolalar tabiatning ajralmas qismi boʻlgan birliklar bilan yaqindan tanishib boradilar. Bundan tashqari tarbiyachi yordamida applikatsiya mashgʻulotlarini oʻtkazish ham bolalar uchun maroqli mashgʻulotlardan biri boʻladi. Bu orqali ular tabiatni yanada koʻproq kuzatishga, uni asrashga, oʻrganishga intilishadi.

Bolalarga ekologik bilimlar berishda amaliy faoliyat turidan ham keng foydalaniladi. Masalan: turli xil sayrlar, gul ekish, ekskursiyalar, barglar yigʻish, qushlarga don berish, tabiat burchaklariga tashrif buyurish kabilar. Ertaklarda soʻzlangan narsalarni bolalar oʻz koʻzlari bilan kuzatsalar bu ular uchun ancha qiziqarli va esda qolarli boʻladi. Kuzatish jarayonida ham tarbiyachi savollar orqali bolalarga murojaat qilib ularni qay darajada diqqat qaratayotgani va ekologik bilimlarga ega boʻlayotganliklarini kuzatib turadilar.

Hozirgi kunda butun dunyoda keng tarqalayotgan multimedia vositalari ham maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarga taʼlim-tarbiya berishda keng koʻlamda foydalanilmoqda. Bolalarga ekologik ertaklarni yetkazib berishda ham juda qoʻl keladi. Multimedia vositalari orqali turli xil animatsiyon ertaklar koʻrsatish mumkin. Undagi animatsiyalar va ovoz uygʻunligi ertak taʼsirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu koʻrinishdagi ertaklar barcha bolalar diqqatini birdek jalb qiladi.

Ekologik ertaklar asosida olib borilgan tarbiya natijasida bolalarda: tabiatga mehr va ehtiyotkor munosabat shakllanadi, ekologik xulq-atvor elementlari rivojlanadi, atrof-muhitni asrashga oid ijobiy odatlar paydo boʻladi.

Ekologik ertaklardan foydalanishda pedagog-tarbiyachilar quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

•Yoshga moslik – syujet sodda va qisqa boʻlishi;

Ertaklarda berilayotgan ma'lumotlar bolalar yoshiga mos bo'lishi voqealar davomiyligi qisqaroq bo'lishi muhim hisoblanadi. Chunki bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta predmet yoki voqea -hodisalarni yodda saqlab qolishga qiynalishadi. Shu sababli ertaklarni bir muncha sodda va qisqa tarzda berib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

•*Emotsionallik – qahramonlar bolaga yaqin bo'lishi;*

Ertaklardagi qahramonlar bolalarga tushunarli tarzda bo'lishi lozim. Bolalar fikrlashi juda sodda bo'lganligi sababli qahramonlar ham bolaga yaqin bo'lishiga e'tibor qaratish muhim. Aks holda bolalarda toliqish yoki zerikish hissi paydo bo'lishi mumkin.

•*Hayot bilan bog'liqlik – ertak real hayotdagi holatlar bilan bog'lanishi;*

Ekologik ertaklar deyarli barchasi real hayot bilan bog'liq holda lekin nisbatan soddaroq ko'rinishda bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalar bolalarga ertak qahramonlari orqali yetkazib beriladi.

•*Takroriylik – ekologik g'oyalar turli ertaklarda qayta mustahkamlanishi.*

Ertakdagi voqealarning bir-biriga bog'liqligi ham juda muhim hisoblanadi. Chunki ma'lumotlar qisqa va soddaroq tarzda bo'lganligi sababli biron bir voqelikni anglatish uchun bir necha ertaklardan ham foydalanish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari ekologik ertaklar bolalar psixikasiga quyidagi mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi:

- Identifikatsiya – bola o'zini ertak qahramoni o'rniga qo'yadi;
- Empatiya – tabiat obyektlariga hamdardlik paydo bo'ladi;
- Emotsional xotira – ertak mazmuni uzoq muddat esda saqlanadi;
- Axloqiy refleksiya – bola o'z xatti-harakatlarini baholaydi.

Ushbu mexanizmlar ekologik tarbiyaning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda tarbiyachilar va ota-onalardan yuqori sinchkovlik talab qiladi. Bu tarbiyachilar oldiga ertaklarni to'g'ri tanlash va yetkazib berish vazifasini qo'yadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki ekologik ertaklar maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga mehr uyg'otish, ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda

muhim ahamiyatga ega. Ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tizimli joriy etish orqali bolalarda atrof-muhitni asrashga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30 oktabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PF-5863-sonli farmoni.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, Toshkent 2022, 6-bob 30-b.
3. Jumanova.F.U. Kasb-hunar kollejlari O'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish. Ped.fan.nom.dis..-2010 y. 12b.
4. Karamatova.D.S, Tolliyeva.G.R., Qilichova.M.J./O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida 2022, 119-b
5. Egamberdiev R. Ekologiya. -T.: -T.: O'zbekiston, 1993.
6. www.zivonet.uz